

MINTAQAVIY RIVOJLANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Rasuljonov Abu Bakr Abdumalik o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: rasuljanovabubakir6@gmail.com

Tel: +998 97 252 63 36

Annotatsiya

Mazkur maqolada mintaqaviy rivojlanish nazariyasining metodologik arxitekturasini ilmiy jihatdan tizimlashtirildi. Tadqiqotda qutbli o'sish, eksport bazasi, neoklassik va endogen o'sish, yangi iqtisodiy geografiya, innovatsion tizim, klaster hamda institutsional yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi. Ontologik, gnoseologik va uslubiy darajalarni bog'lovchi to'rt bosqichli konseptual sxema ishlab chiqildi. Kompozit indikatorlar, iyerarxiyalarni tahlil qilish va tizimli yondashuvning qo'llanish mezonlari asoslandi. Olingan natijalar nazariy oqimlarning bir-birini to'ldirishini, metodologik tanlovning shaffofligini oshirish va hududiy rejalashtirishni dalillarga asoslash imkoniyatlarini ko'rsatdi. Milliy strategik maqsadlarni ilmiy tahlil vositalari bilan uyg'unlashtirish hududiy dasturlarni aniqroq loyihalash, monitoring jarayonlarini takomillashtirish va resurslardan samarali foydalanishga xizmat qilgani asoslandi. Taklif etilgan arxitektura mintaqaviy tadqiqotlar va boshqaruv amaliyoti uchun barqaror rivojlanish yo'lida ishonchli nazariy asos yaratdi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy rivojlanish, metodologik arxitektura, hududiy siyosat, endogen o'sish, iqtisodiy geografiya, innovatsion tizim, klaster, kompozit indikator.

Аннотация

В статье была научно систематизирована методологическая архитектура теории регионального развития. В исследовании были сравнительно проанализированы теории полюсов роста, экспортной базы, неоклассического и эндогенного роста, новой экономической географии, инновационных систем, кластерного и институционального развития. Была разработана четырехуровневая концептуальная схема, объединяющая онтологический, гносеологический и методический уровни. Были обоснованы критерии применения композитных индикаторов, метода анализа иерархий и системного подхода. Полученные результаты показали взаимодополняемость теоретических направлений, возможности повышения прозрачности методологического выбора и укрепления доказательной основы регионального планирования. Также было обосновано, что согласование национальных стратегических целей с научными инструментами анализа способствовало более точному проектированию региональных программ, совершенствованию мониторинга и рациональному использованию ресурсов. Предложенная архитектура создала надежную теоретическую основу для дальнейших региональных исследований и практики управления территориями.

Ключевые слова: региональное развитие, методологическая архитектура, региональная политика, эндогенный рост, экономическая география, инновационная система, кластер, композитный индекс.

Abstract

This article systematically examined the methodological architecture of regional development theory. The study comparatively analyzed growth pole theory, export base theory, neoclassical and endogenous growth, new economic geography, regional innovation systems, cluster theory, and institutional approaches. A four-level conceptual framework linking ontological, epistemological, and methodological dimensions was developed. The criteria for applying composite indicators, the analytic hierarchy process, and a systemic approach were substantiated. The findings showed that the theoretical perspectives complemented one another and improved the transparency of methodological choices and the evidence base of regional planning. The proposed architecture provided a reliable theoretical foundation for further regional research and for strengthening the practical design of territorial development policies.

Keywords: regional development, methodological architecture, regional policy, endogenous growth, economic geography, innovation system, cluster, composite indicators.

KIRISH

Mintaqaviy rivojlanish nazariyasi iqtisodiy makonning notekis tuzilishini tushuntirish ehtiyojidan kelib chiqib shakllandi va bir necha o'n yillik davomida mustaqil metodologik apparatga ega bo'ldi. Uning predmeti hududiy tizimlarning ichki tuzilmasi, ular o'rtasidagi aloqalar hamda taraqqiyot sur'atlarining farqlanish qonuniyatlarini qamrab oladi. F. Perru iqtisodiy makonni geografik makon bilan aynanlashtirmasdan, uni kuchlar maydoni sifatida talqin qildi va rivojlanish impulsining yetakchi tarmoq atrofida to'planib, keyin atrofga tarqalishini asoslab berdi [1]. Ushbu qarash hududiy tahlilning ontologik zaminini o'zgartirdi.

D. Nort mintaqaviy o'sishni tashqi talab bilan bog'lab, eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar hududning ichki iqtisodiy tuzilmasini shakllantirishini ko'rsatdi [2]. Neoklassik yo'nalishda R. Solou ishlab chiqarish omillarining chegaraviy qaytimi pasayishi natijasida hududlar o'rtasida daromad darajalarining yaqinlashuvi kutilishini asoslab berdi [3]. J. Uilyamson esa hududiy tafovutlarning milliy taraqqiyot bosqichlariga bog'liq ravishda avval kengayib, so'ngra torayish tendensiyasiga o'tishini teskari U shaklidagi bog'liqlik orqali umumlashtirdi [4].

Nazariy-metodologik asos tushunchasi uch darajani qamrab oladi. Ontologik daraja tadqiqot obyektining tabiatini - mintaqqa iqtisodiy makon va institutsional tizim sifatida qanday talqin qilinishini belgilaydi. Gnoseologik daraja bilim hosil qilish mantig'ini, ya'ni sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash yo'llarini tavsiflaydi. Uslubiy daraja esa aniq tahlil vositalarini, model va o'lchov usullarini tanlash tartibini qamrab oladi. Uch darajaning izchil bog'lanishi tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlaydi.

Maqolaning maqsadi mintaqaviy rivojlanish nazariyasining metodologik arxitekturasini yaxlit tizim sifatida tavsiflash, nazariy oqimlarning o‘zaro to‘ldiruvchi mantig‘ini ochib berish va nazariy darajalarni hududiy siyosat qarorlari bilan bog‘lovchi konseptual sxemani ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari nazariy oqimlarni tahlil birligi va rivojlanish mexanizmi bo‘yicha qiyoslash, metodologik vositalarni tanlash mezonlarini asoslash hamda milliy sharoitda nazariy asoslarning qo‘llanish imkoniyatlarini ko‘rsatishni o‘z ichiga oldi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Endogen o‘rish yo‘nalishi hududiy taraqqiyot manbalarini tizimning ichki jarayonlariga bog‘ladi. R. Lukas inson kapitalining tashqi effektlari unumdorlikni oshirishini va malakali kadrlar to‘plangan hududlarda o‘rishning tezlashishini modellashtirdi [5]. P. Romer texnologik bilimni iqtisodiy tizimning ichki mahsuli sifatida talqin qilib, bilimning raqobatsiz tabiati o‘rishning uzoq muddatli manbaini yaratishini ko‘rsatdi [6]. Ikki model mintaqaviy tahlilda inson kapitali va innovatsion salohiyatni mustaqil tadqiqot obyektiga aylantirdi.

P. Krugman ortib boruvchi qaytim, transport xarajatlari va omillar harakatchanligi o‘rtasidagi muvozanat iqtisodiy faoliyatning fazoviy to‘planishini belgilashini rasmiy model orqali asoslab berdi [7]. M. Fujita va P. Krugman yangi iqtisodiy geografiyaning rivojlanish bosqichlarini umumlashtirib, uning nazariy yutuqlari qatorida markazlashuv va tarqalish kuchlari muvozanatini aniq ifodalash imkoniyatini ko‘rsatdilar [8]. R. Barro va X. Sala-i-Martin hududiy ma’lumotlar asosida shartli yaqinlashuvning barqaror sur’atini aniqlab, yaqinlashuv tezligi hududlarning tuzilmaviy xususiyatlariga bog‘liqligini ko‘rsatdilar [9].

Innovatsion tizim yondashuvi doirasida F. Kuk va uning hammualliflari hududiy innovatsion tizimning institutsional va tashkiliy o‘lchovlarini ajratib, bilim aylanishining hududiy tarmoq tuzilishiga bog‘liqligini asoslab berdilar [10]. M. Porter klaster konsepsiyasi orqali hududiy ustunlikni korxonalar, yetkazib beruvchilar va institutlar o‘rtasidagi yaqin aloqalar bilan izohladi hamda kooperatsiya va raqobatning uyg‘un amal qilishi unumdorlikni oshirishini ko‘rsatdi [11]. R. Kamanyi hududiy raqobatbardoshlikni kollektiv resurslar sifati, ijtimoiy kapital va o‘rganish qobiliyati orqali tavsifladi [12].

R. Boschma yaqinlikning bir necha o‘lchovini ajratib, ularning innovatsion hamkorlikka ta’sirini tizimlashtirdi va oraliq darajadagi yaqinlik eng samarali natija berishini asosladi [13]. M. Storper hududni bozor orqali o‘lchanmaydigan o‘zaro bog‘liqliklar tugunlari sifatida talqin qilib, ishonch, norasmiy qoidalar va bilim almashinuvining iqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatdi [14]. F. Barka, F. Makkann va A. Rodrigues-Poze joyga asoslangan siyosat modelining institutsional ustunliklarini asoslab, hududiy aralashuvlar mahalliy bilimga tayanganda yuqori natija berishini ko‘rsatdilar [15]. R. Martin va P. Sanli hududiy bardoshlilik tushunchasini tizimning tuzilmasini qayta shakllantirish qobiliyati sifatida talqin qildilar [16].

Adabiyotlar sharhi nazariy oqimlarning bir-birini inkor etmasligini, balki tahlilning turli darajalarini yoritishini ko‘rsatadi. Klassik oqimlar makonning tuzilishini, o‘rish nazariyalari dinamikani, fazoviy modellar to‘planish mexanizmini,

institutsional yondashuv esa qoidalar tizimini tushuntiradi. Nazariy manbalarda ushbu darajalarni yagona metodologik arxitekturaga birlashtirish masalasi kam ishlangan bo'lib, u maqolaning tadqiqot vazifasini belgilaydi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot nazariy tahlil usullariga asoslandi. Qiyosiy-nazariy usul oqimlarning tahlil birligi, rivojlanish mexanizmi va siyosat natijalari bo'yicha farqlarini aniqlash imkonini berdi. Tarixiy-mantiqiy usul nazariyalarning shakllanish ketma-ketligini va bir-biridan o'sib chiqish mantig'ini ko'rsatdi. Tizimli yondashuv nazariy darajalarni o'zaro bog'liq butunlik sifatida tavsiflashga xizmat qildi. Ilmiy abstraksiya va mantiqiy modellashtirish konseptual sxemani shakllantirishda qo'llanildi.


Metodologik vositalarni tanlash mezonlari nazariy modelga muvofiqlik, ma'lumotlar bilan ta'minlanish darajasi, natijaning talqin qilinuvchanligi va tekshiriluvchanlik talablari asosida belgilandi. Kompozit o'lchov tuzish tartibi xalqaro uslubiy qo'llanmada asoslangan bosqichlarni - nazariy modelni aniqlash, ko'rsatkichlarni tanlash, ma'lumotlarni normallashtirish, og'irliklarni belgilash, agregatlash hamda noaniqlik va sezgirlik tahlilini o'tkazishni qamrab oladi [17]. Ekspert baholarini tizimli hisobga olishda iyerarxiyalarni tahlil qilish usuli qulay hisoblanadi, chunki u juftlik solishtirmalari va izchillik indeksi orqali baholar sifatini nazorat qilish imkonini beradi [18].

Metodologik arxitektura to'rt darajali mantiqqa asoslandi. Birinchi daraja tadqiqot obyektining ontologik talqinini belgilaydi. Ikkinchi daraja nazariy oqimlarni ularning tushuntirish quvvatiga ko'ra guruhlaydi. Uchinchi daraja tanlangan nazariyaga muvofiq tahlil vositalarini birlashtiradi. To'rtinchi daraja olingan natijalarni hududiy siyosat qarorlariga aylantiradi. Darajalar o'rtasidagi izchillik nazariy asos bilan amaliy tavsiya o'rtasidagi mantiqiy uzilishning oldini oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy umumlashtirish natijasida mintaqaviy rivojlanish nazariyasining metodologik arxitekturasi konseptual sxema ko'rinishida ifodalandi. Sxema tadqiqot mantig'ining ontologik talqindan siyosat qaroriga qadar bo'lgan yo'lini ko'rsatadi va har bir darajada metodologik tanlov nuqtalarini aniqlash imkonini beradi (1-rasm).

Sxemaning birinchi darajasi mintaqani bir vaqtning o'zida iqtisodiy makon va institutsional tizim sifatida talqin qiladi, bu ikki jihat tahlilning keyingi bosqichlarida ajratilmagan holda saqlanadi. Ikkinchi daraja uch nazariy oqimni birlashtiradi: klassik joylashuv va qutbli o'sish yo'nalishi makonning tuzilmasini, neoklassik va endogen o'sish yo'nalishi dinamikani, fazoviy-institutsional yo'nalish esa qoidalar hamda tarmoq aloqalarini yoritadi. Uchinchi daraja tanlangan nazariyaga mos keluvchi tahlil vositalarini birlashtiradi. To'rtinchi daraja natijalarni hududiy dasturlar mazmuniga aylantiradi.



1-rasm. Mintaqaviy rivojlanish nazariyasining metodologik arxitekturası¹.

Nazariy oqimlarning qiyosiy tavsifi ularning tahlil birligi va rivojlanish mexanizmi bo'yicha farqlanishini ko'rsatadi. Umumlashtirilgan natija 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Mintaqaviy rivojlanish nazariyalarining metodologik qiyosiy tavsifi²

Nazariy oqim	Tahlil birligi	Rivojlanish mexanizmi	Manba
Qutbli o'sish nazariyasi	Yetakchi tarmoq va o'sish markazi	Innovatsion impulsning markazdan tarqalishi	[1]
Eksport bazasi modeli	Tashqi talabga yo'naltirilgan tarmoq	Eksport daromadining multiplikativ ta'siri	[2]
Neoklassik o'sish nazariyasi	Kapital va mehnat zaxirasi	Chegaraviy qaytim va daromadlar yaqinlashuvi	[3]
Endogen o'sish nazariyasi	Bilim va inson kapitali	Ichki texnologik o'zgarish jarayoni	[6]
Yangi iqtisodiy geografiya	Firma va bozor hajmi	To'planish hamda transport xarajatlari muvozanati	[7]
Innovatsion tizim yondashuvi	Institutlar va aloqalar tarmog'i	Bilimning tizimli aylanishi	[10]
Klaster konsepsiyasi	Hududiy ishlab chiqarish majmuasi	Kooperatsiya va raqobatning uyg'unligi	[11]
Institutsional-evolyutsion yondashuv	Qoidalar va boshqaruv tizimi	Institutlarning bosqichma-bosqich takomillashuvi	[15]

Institutsional yo'nalishning nazariy hissasi alohida e'tiborga loyiq. D. Asemog'lu, S. Jonson va J. Robinson institutsional tuzilmaning uzoq muddatli iqtisodiy natijalarga ta'sirini asoslab, mulk huquqlari va boshqaruv qoidalarining barqarorligi investitsion

¹ Muallif ishlanmasi

² Manba: [1], [2], [3], [6], [7], [10], [11] va [15] manbalar asosida muallif tomonidan tuzildi.

faollikni belgilashini ko'rsatdilar [19]. Hududiy darajada ushbu qoida boshqaruv sifati, qarorlar muvofiqligi va mahalliy institutlarning ishonchliligi orqali namoyon bo'ladi. Jahon banki tomonidan taklif etilgan hududiy integratsiya vositalari - fazoviy jihatdan neytral institutlar, bog'lovchi infratuzilma va maqsadli aralashuvlar - nazariy darajalarni siyosat vositalariga aylantirishning izchil namunasini beradi [20].

O'zbekiston sharoitida nazariy asoslarning qo'llanishi uchun qulay institutsional muhit shakllantirilgan. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi hududlarni rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar tizimini belgilab berdi [21]. Keyinchalik qabul qilingan hujjat strategiya maqsadlarini yangilash, samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashtirish hamda monitoring jarayonlarini raqamlashtirish tartibini mustahkamladi va soha, tarmoq hamda hududlarni rivojlantirish bo'yicha strategik rejalashtirish hujjatlarini yagona maqsadlar tizimiga bog'ladi [22]. Belgilangan tartib nazariy modellarni amaliy rejalashtirish jarayoniga tatbiq etish uchun izchil zamin yaratadi.

Nazariy tahlil metodologik tanlovning uch tamoyilini ajratish imkonini berdi. Birinchi tamoyil nazariya bilan usul o'rtasidagi muvofiqlikni talab qiladi: to'planish jarayonlarini o'rganishda fazoviy modellar, bilim aylanishini tahlil qilishda tarmoq usullari maqbul hisoblanadi. Ikkinchi tamoyil ko'p o'lchovlilikni saqlashni nazarda tutadi, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional o'lchovlar yagona ko'rsatkichga to'liq siqilmasligi lozim. Uchinchi tamoyil natijalarning tekshiriluvchanligini talab qiladi: normallashtirish, vaznlash va agregatlash tartibi shaffof hujjatlashtirilishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nazariy tadqiqot mintaqaviy rivojlanish nazariyasining metodologik arxitekturasini ontologik, gnoseologik va uslubiy darajalarning izchil birligidan tashkil topishini asoslash imkonini berdi. Nazariy oqimlar bir-birini almashtiruvchi muqobillar emas, balki tahlilning turli darajalarini yorituvchi to'ldiruvchi vositalar sifatida talqin qilindi.

Birinchi, hududiy tadqiqotlarda nazariy asosni oldindan aniq belgilash va tanlangan nazariyaga muvofiq tahlil vositalarini qo'llash tavsiya etiladi. Ikkinchi, to'planish, inson kapitali va institutsional sifat omillarini bir tadqiqot doirasida birgalikda hisobga olish nazariy jihatdan asosli hisoblanadi, chunki ular hududiy natijaga birgalikda ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi, kompozit o'lchovlar tuzishda xalqaro uslubiy qo'llanmaning bosqichlariga to'liq amal qilish va sezgirlik tahlilini majburiy element sifatida kiritish maqsadga muvofiq. To'rtinchi, ekspert baholarini qo'llashda izchillik nazoratini ta'minlovchi tartiblardan foydalanish natijaning ishonchliligini oshiradi.

Beshinchi, nazariy darajalarni siyosat qarorlari bilan bog'lovchi sxema hududiy dasturlarni loyihalashda mantiqiy ramka vazifasini bajarishi mumkin. Oltinchi, milliy strategik hujjatlarda belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar tizimi bilan ilmiy tadqiqot vositalarini uyg'unlashtirish hududiy rejalashtirishning dalillarga asoslanish darajasini oshiradi. Taklif etilgan metodologik arxitektura keyingi empirik tadqiqotlar uchun nazariy tayanch vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Perroux F. Economic Space: Theory and Applications // The Quarterly Journal of Economics. - 1950. - Vol. 64, No. 1. - P. 89-104. <https://doi.org/10.2307/1881960>
2. North D.C. Location Theory and Regional Economic Growth // Journal of Political Economy. - 1955. - Vol. 63, No. 3. - P. 243-258. <https://doi.org/10.1086/257668>
3. Solow R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // The Quarterly Journal of Economics. - 1956. - Vol. 70, No. 1. - P. 65-94. <https://doi.org/10.2307/1884513>
4. Williamson J.G. Regional Inequality and the Process of National Development: A Description of the Patterns // Economic Development and Cultural Change. - 1965. - Vol. 13, No. 4. - P. 1-84. <https://doi.org/10.1086/450136>
5. Lucas R.E. On the Mechanics of Economic Development // Journal of Monetary Economics. - 1988. - Vol. 22, No. 1. - P. 3-42. [https://doi.org/10.1016/0304-3932\(88\)90168-7](https://doi.org/10.1016/0304-3932(88)90168-7)
6. Romer P.M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. - 1990. - Vol. 98, No. 5. - P. S71-S102. <https://doi.org/10.1086/261725>
7. Krugman P. Increasing Returns and Economic Geography // Journal of Political Economy. - 1991. - Vol. 99, No. 3. - P. 483-499. <https://doi.org/10.1086/261763>
8. Fujita M., Krugman P. The New Economic Geography: Past, Present and the Future // Papers in Regional Science. - 2004. - Vol. 83, No. 1. - P. 139-164. <https://doi.org/10.1007/s10110-003-0180-0>
9. Barro R.J., Sala-i-Martin X. Convergence // Journal of Political Economy. - 1992. - Vol. 100, No. 2. - P. 223-251. <https://doi.org/10.1086/261816>
10. Cooke P., Gomez Uranga M., Etzebarria G. Regional Innovation Systems: Institutional and Organisational Dimensions // Research Policy. - 1997. - Vol. 26, No. 4-5. - P. 475-491. [https://doi.org/10.1016/S0048-7333\(97\)00025-5](https://doi.org/10.1016/S0048-7333(97)00025-5)
11. Porter M.E. Location, Competition, and Economic Development: Local Clusters in a Global Economy // Economic Development Quarterly. - 2000. - Vol. 14, No. 1. - P. 15-34. <https://doi.org/10.1177/089124240001400105>
12. Camagni R. On the Concept of Territorial Competitiveness: Sound or Misleading? // Urban Studies. - 2002. - Vol. 39, No. 13. - P. 2395-2411. <https://doi.org/10.1080/0042098022000027022>
13. Boschma R. Proximity and Innovation: A Critical Assessment // Regional Studies. - 2005. - Vol. 39, No. 1. - P. 61-74. <https://doi.org/10.1080/0034340052000320887>
14. Storper M. The Resurgence of Regional Economies, Ten Years Later: The Region as a Nexus of Untraded Interdependencies // European Urban and Regional Studies. - 1995. - Vol. 2, No. 3. - P. 191-221. <https://doi.org/10.1177/096977649500200301>
15. Barca F., McCann P., Rodríguez-Pose A. The Case for Regional Development Intervention: Place-Based versus Place-Neutral Approaches // Journal of Regional

Science. - 2012. - Vol. 52, No. 1. - P. 134-152. <https://doi.org/10.1111/j.1467-9787.2011.00756.x>

16. Martin R., Sunley P. On the Notion of Regional Economic Resilience: Conceptualization and Explanation // Journal of Economic Geography. - 2015. - Vol. 15, No. 1. - P. 1-42. <https://doi.org/10.1093/jeg/ibu015>

17. OECD, European Union, Joint Research Centre. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. - Paris: OECD Publishing, 2008. <https://doi.org/10.1787/9789264043466-en>

18. Saaty T.L. How to Make a Decision: The Analytic Hierarchy Process // European Journal of Operational Research. - 1990. - Vol. 48, No. 1. - P. 9-26. [https://doi.org/10.1016/0377-2217\(90\)90057-I](https://doi.org/10.1016/0377-2217(90)90057-I)

19. Acemoglu D., Johnson S., Robinson J.A. The Colonial Origins of Comparative Development: An Empirical Investigation // American Economic Review. - 2001. - Vol. 91, No. 5. - P. 1369-1401. <https://doi.org/10.1257/aer.91.5.1369>

20. World Bank. World Development Report 2009: Reshaping Economic Geography. - Washington, D.C.: World Bank, 2009. <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/5991>

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni - Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-6600413>

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. - Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-8050769>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, iyul, 7-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 362/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**